

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**«TASDIQLAYMAN»**  
«Ijtimoiy iqtisodiy»  
fakulteti dekani

\_\_\_\_\_ dots. B.To'ychiboev  
«\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2020 y.

**“IQTISODIYOT” KAFEDRASI**

2-kurs talabalari uchun “Mikroiqtisodiyot” fanidan  
kurs ishlarini bajarish bo'yicha uslubiy

**QO'LLANMA**

Guliston-2020

O.T. Sattorqulov, K.U. Raxmatov, 2-kurs talabalari uchun kurs ishlarini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma.– G.: 2020 -12 b.

Ushbu uslubiy qo'llanma kurs ishini bajaruvchi talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda kurs ishini bajarish uchun qo'yiladigan talablar va kerakli ma'lumotlar bayon etilgan.

**Tuzuvchilar:**

O.T. Sattorqulov \_\_\_\_\_

K.U. Raxmatov \_\_\_\_\_

**Taqrizchi:** i.f.n., dots. A.Muxametov \_\_\_\_\_

«IQTISODIYOT» kafedrasi majlisida muhokama qilingan va ma'qullangan (kafedra majlisining \_\_\_\_ sonli bayonnomasi, 2020 y)

## Kirish

“Mikroiqtisodiyot” fani zamonaviy bozor tizimini qanday ishlashini, bozor narxini shakllanish mexanizmlarini va bozor sub’ektlarining iqtisodiy faoliyatini o‘rganadi.

Iqtisodiyotda tarkibiy islohotlar va iqtisodiyotni modernizatsiyalashni yanada chuqurlashtirish, uning ko‘lамини kengaytirish bilan bog‘liq masalalarining nazariy va amaliy tomonlarini o‘rganishda “Mikroiqtisodiyot” fani alohida o‘rin tutidi.

“Mikroiqtisodiyot” fani bozor iqtisodiyotining nazariy va amaliy tomonlarini o‘rganish bilan birga, mikroiqtisodiy modellar orqali amaliyotda vujudga keladigan iqtisodiy muammolarni tahlil qilishda va ularning echimini topishda, shuningdek, sababiy bog‘liqlikda xulosalar yasashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fan fundamental fanlardan hisoblanib, boshqa iqtisodiy fanlarni chuqur o‘rganishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

“Mikroiqtisodiyot” fani bozor iqtisodiyotining amal qilish mexanizmini, turli mulkchilikka asoslangan korxonalarining xo‘jalik yuritish faoliyatini, ularning bozor sharoitidagi harakatini, iste’molchilarining xatti-harakatini, cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish yo‘llarini nazariy va amaliy tomonlarini o‘rgatadi. Kurs ishini yozish davomida talaba olgan bilimlarini mustaxkamlaydi.

### 1. Kurs ishiga qo‘yiladigan umumiyl talablar

Zamonoviy iqtisodchi keng qamrovli bilimlarga ega bo‘lishi, nazariy bilimlarni amaliy vazifalar bilan bog‘lay olishi lozim. Bu maqsadga erishish talabidan o‘z ustida tinmay ishlashni, nazariy va amaliy bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishni talab qiladi.

Kurs ishida talabaning oliv o‘quv yurtida o‘qish davomida to‘plagan nazariy va amaliy bilimlari yuzaga chiqadi, talabaning nazariy bilimlar bilan qurollanish darajasi, uning olgan bilimlari va ko‘nikmalarini ilmiy-ishlab chiqarish vazifalarini echishga qay darajada qo‘llay olishi namoyon bo‘ladi. Kurs ishini bajarish talabidan universitetda olgan nazariy va amaliy bilimlardan foydalanishni talab etadi, talabaning o‘qish davomida olgan bilimlarini umumlashtirishga, chuqurlashtirishga va mustahkamlashga, ularni amaliyotga qo‘llashga imkon beradi.

Kurs ishida aniq bir amaliy vazifani echish vazifasi qo‘yilishi muhimdir. Tadqiqot ob’ekti sifatida muayyan bir bozor ob’ekti yoki korxona chiqishi lozim. Kurs ishida bir yoki bir-biri bilan bog‘langan bir nechta masalalarni xam nazariy va amaliy chuqur taxlil etilishi talabaning muammoni mustaqil anglay bilishga qodirligini ko‘rsatadi.

Kurs ishi iqtisodiyotdag iqtisodiy agentlarni faoliyati, ularning faoliyatini bozorda bir biriga muvofiklashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta’siri va yuzaga keladtgan muammolarni hal etish yo‘llari ko‘rsatilgan ilmiy asoslangan xulosalar va takliflarga ega bo‘lishi lozim.

Kurs ishining sifati uning ilmiyligi, tanlangan mavzuning dolzarbligi, talabaning mustaqil ishga ijodiy yondoshish ko‘nikmalarini namoyon qila olishi bilan baholanadi.

Kurs ishini bajarish jarayonida talabalar quyidagilarga e’tibor berishi lozim:

- voqelikni o‘rganish va anglashning ilmiy usullaridan boxabar bo‘lish;
- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar mohiyati va mazmunini chuqur anglash;
- ilmiy adabiyotlar va boshqa manbalar orqali o‘rganilayotgan masalaning mohiyatini chuqur anglab etish;
- mustaqil ilmiy-tadqiqotlar olib borish uslubiyoti bilan tanishish;
- aniq bir korxona yoki ob’ekt misoldida mavzuni ochib berishga xizmat qiladigan barcha ma’lumotlarni to‘liq yig‘ish va qayta ishlash;
- ishda iqtisodiy tadqiqotlar olib borishning turli usullaridan, ilmiy-tadqiqot muassasalari tavsiyalari, ilg‘orlar tajribasi, mahalliy va xorijiy adabiyotlardan unumli foydalanish;
- ishning ilmiy saviyasi yuqori bo‘lishiga, mavzuning etarlicha dolzarbligiga e’tibor berish;
- o‘rganilayotgan masalani aniq ochib berish, ishda ko‘chirmachilikka, keraksiz va ortiqcha ma’lumotlardan foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik;
- boblar va bo‘limlarning mantiqan bog‘lanishiga e’tibor berish, fikrlarni qisqacha bayon etish orqali ishning hajmi ortib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- masalani aniq dalillar va raqamlar yordamida tahlil etish, o‘z o‘rnida ishning mazmunidan kelib chiqadigan tavsiyalar va xulosalar bera olish;

- tavsiya etilayotgan echimlarning asoslanganligiga va samaradorligini baholash mezonlari bo‘lishiga e’tibor berish, ishning faqatgina faktlarni quruq bayon etishdan iborat bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik;

- ishda ko‘rgazmali vositalardan, ya’ni jadvallar, chizmalar, diagrammalar va grafiklardan unumli foydalanish;

- mavzu ustida maqsadga yo‘naltirilgan va tizimga solingan ish olib borish, kurs ishini bajarish muddatlariga qat’iy rioya etish.

Kurs ishida taklif va muloxazalar, xulosalar va amalga oshirilgan barcha hisob-kitoblarning to‘g‘riliqi va sifati uchun talabalar ma’sul hisoblanadilar.

## **2. Kurs ishini bajarishning maqsad va vazifalari**

Kurs ishi talaba tomonidan mustaqil bajariladigan ilmiy izlanish bo‘lib, unda talaba o‘qish davri mobaynida olgan nazariy bilimlari, amaliy darslarni qanday darajada o‘zlashtirganligini darajasini namoyon etadi.

Kurs ishi bakalavriatning mazkur yo‘nalishiga davlat ta’lim standartlarida qo‘yilgan talablarga, mamlakatimiz hukumatining iqtisodiy siyosati va olib borayotgan iqtisodiy islohotlari mazmuniga mos kelishi maqsadga muvofiq.

Kurs ishini bajarishdan ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

-talabalarning kurs davomida olgan nazariy va amaliy bilimlarni umumlashtirish, tizimga keltirish, mustahkamlash va kengaytirish, olingan bilimlarni aniq ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy va biznes vazifalarini hal etishda qo‘llash;

- talabalarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, echim talab etadigan muammo va masalalarni tadqiq etish usullarini egallashga va tadqiqot o‘tkazishga imkon yaratish;

- ijodiy ishslash, ishlab chiqilayotgan masalaning (muammoning) qo‘yilish jarayonidan boshlab, uni to‘la nihoyasiga etkazish bo‘yicha qaror qabul qilishda bo‘lgan ma’suliyatni his etishga o‘rgatish;

- zamonaviy ishlab chiqarish va biznes, iqtisodiyot, texnika va madaniyatining rivojlanishi sharoitida talabalarni mustaqil ishslashga tayyorgarligini aniqlash.

Kurs ishining muhim vazifalaridan biri-talabaning muayyan bir iqtisodiyot sektorda, uning bo‘limmasi yoki korxona misolida muammolarni yoritib bera olishi va bu masalalariga tanqidiy baho bera olishidir. Ishni bajarish jarayonida faqatgina ob’ekt to‘g‘risidagi iqtisodiy natijalarni qayd etish bilan cheklanmay, ularni muayyan shart-sharoitlar bilan bog‘lay olish, mavjud kamchiliklar va muammolarning kelib chiqish sabablarini ochib berish muhimdir.

## **3. Kurs ishlarining mavzusini tanlash**

Kurs ishlari muvaffaqiyatini aniqlaydigan muhim va mas’uliyatli vazifalardan biri-tadqiqot mavzusini tanlashdir. Mavzularga qo‘yiladigan umumiyl talab-ularning dolzarbligi, ishlab chiqarish ehtiyojlari va muammolari bilan bog‘liqligidir. Ular hozirgi zamon talablari, iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari istiqbollaridan kelib chiqishi zarur.

Kurs ish mavzusi keng qamrovli nazariy va amaliy xususiyatga ega bo‘lishi va ob’ekt to‘g‘risida eng muhim vazifalarini qamrab olishi va ilmiy yo‘nalishida taxlil qilinishini nazarda tutishi lozim. Kurs ish mavzusi muammoning zamonaviy holatini va iqtisodiyot, biznes, ishlab chiqarish, ijtimoiy sohalar, fan, ta’lim va madaniyatning istiqboliy rivojlanishini aks ettirishi kerak.

Mavzuning dolzarbligini asoslashda ushbu masala ustida tadqiqotlar olib borish nima uchun zarurligini, ishlab chiqarish bilan bog‘liq qanday muammolar bunga sabab bo‘lganini va tadqiqot yakunlari bo‘yicha erishilajak natijalar muammoni echishga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniq bayon etib berish lozim.

Kurs ishlari mavzulari ixtisoslashgan kafedralar tomonidan belgilanadi va har o‘quv yilida yangilab turilishi tavsiya etiladi.

Talabaga kurs ish mavzusini tanlash huquqi beriladi. Mavzuni tanlash jarayonida talabalarga ish rahbari yordam berishi maqsadga muvofiq. Mavzuni tanlash jarayonida rahbar tavsiya etilayotgan mavzular ro‘yxatini berish bilan cheklanib qolmay, balki tanlanadigan mavzuni

mohiyati va o'chib berish imkoniyatlari bilan hamda ma'lumotlar manbalari bilan talabani tanishtirishi maqsadga muvofiq.

Kurs ishi mavzusini tanlashda rahbar va talaba quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

1. Kurs ishini yozish jarayonida mavzuni chuqur o'rganish va iqtisodiy taxlil olib borish imkoniyati mavjudligi.

2. Talabaning ilmiy-amaliy izlanishga qobiliyatligi.

3. Kurs ishini bajarish uchun ma'lumotlar, yo'riqnomalar bilan ta'minlanganlik darajasi.

Kurs ishlari mavzusining yillik ro'yxati kurs boshida e'lon qilinadi.

#### **4. Kurs ishlarining mavzulari ro'yxati:**

1. Mikroiqtisodiyot fanining predmeti, vazifalari va o'rganish uslubi.
2. Ehtiyojlar cheksizligi va resurslardan samarali foydalanish nazariyalari.
3. Bozor iqtisodiyoti mexanizmi tamoyillari.
4. Bozor va uning iqtisodiy mohiyati va vazifalari.
5. Korhonalar bozori, ularning hillari.
6. Bozor tizimi va bozor infratuzilmasi-moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va jamiyat hayotining muhim sharti.
7. Kichik va o'rtacha biznesni qo'llab-quvvatlashda shartnoma munosabatlari.
8. Bozor iqtisodiyotida korhonalar va ularning iqtisodiy mohiyati.
9. Korhonalar va uning turlari.
10. Korhonalar ho'jalik faoliyatini tashkil etishning huquqiy va iqtisodiy asoslari.
11. Korhonalar samaradorligi va va mulkiy munosabatlar.
12. Talab va taklif nazariyasining asoslari.
13. Tovarlar va hizmatlarga bo'lgan talab va ehtiyoj nazariyalari.
14. Talab va taklif-ishlab chiqarish faoliyatining asosidir.
15. Talab o'zgaruvchanligi va taklif o'zgaruvchanligi (elastikligi) nazariyalari
16. Talab o'zgaruvchanligi va unga ta'sir etuvchi omillar.
17. Taklif o'zgaruvchanligi va unga ta'sir etuvchi omillar.
18. Davlatning baho ustidan nazorati va uni mezonlari.
19. Iste'molchi hatti-harakatining iqtisodiy nazariyasi.
20. Iste'molchi hatti-harakatining hususiyatlari za unga ta'sir etuvchi omillar.
21. Iste'molchining tovar afzalligini ajratishi (baholash)
22. Befarklik egri chizig'i va uning xususiyatlari.
23. O'rnini bosa oladigan tovar tanloving pirovard normasi.
24. Iste'molchi talabining daromadiga ko'ra cheklanishi.
25. Daromad chizig'I va daromad to`g`risidagi nazariyalar.
26. Daromad va bahoning byudjet chizig'iga ta'siri.
27. Iste'molchining tovar tanlovi nazariyalari.
28. Foydalilik konsepsiysi va uning xususiyatlari.
29. Tovar foydalilagini oshirish qoidasi va iste'molchilarining qoniqishi.
30. Tovarlarning pirovard foydaliligi va uning xususiyatlari.
31. Ishlab chiqarish va firmalarning hatti-harakati.
32. Ishlab chiqarish va ishlab chiqarish omillari to'g'risida tushuncha.
33. Ishlab chiqarish omillari (funksiyalari)ning mahsulot hajmining ko'payishiga ta'siri. Izokvantalar.
34. Qisqa bozor davridagi ishlab chiqarish.
35. Uzoq bozor davridagi ishlab chiqarish.
36. Ishlab chiqarish harajatlari va uning turlari.
38. Qiska va uzoq muddatdagi harajatlar.
39. Resurslarning taqsimlanishi va ishlab chiqarish imkoniyatlari.
40. Ishlab chiqarish hajmini oshirish va harajatlarning o'zgarishi.
41. Bozor hokimligi. Monopoliya va monopol hokimlik.

42. Monopol firmalar hatti-harakatining tahlili.
43. Monopol raqobat va oligopoliya.
44. Bozor tuzilishi, uning shakllari va mohiyati.
45. Monopol raqobat bozori va korhona foydasi.
46. Oligopoliya va korhonalarini oligopoliya sharoitidagi hatti-harakati.
47. Kapital qo‘yilmalar bozori va uning xususiyatlari.
48. Kapital (investigion resurslar) to‘g‘risida nazariyalar.
49. Asosiy va oborot kapitali.
50. Kapitaldan daromad va uning turlari, xususiyatlari.
51. Ma’lum davrdagi investitsiya (pul) qiymatini hisoblash. Diskontlashgan qiymat.
52. Ishlab chiqarish omillari bozori.
53. Ishlab chiqarishning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va iqtisodiy ahamiyati.
54. Ishlab chiqarish omillari bozorida firmalarning holati (muvozanati)
55. Umumiy muvozanat va samaradorlik.
56. Hususiy va umumiy muvozanatlilik.
57. Tovar ayirboshlash jarayonidagi samaradorlik va uning mezonlari.
58. Ishlab chiqarishdagi iqtisodiy samaradorlik va foyda.
59. Foydani maksimallashtirish. Qisqa davrda foydani maksi-mallashtirish.
60. Yakka talab va bozor talabi nazariyalar
61. Mulk shakllari va mulkiy munosabatlari.
62. Talab va unga ta’sir etuvchi omillar.
63. Marketing va uning asosiy tamoyillari.
64. Tovarlarni harid qilishga ta’sir etuvchi omillar.
65. Talab va taklif qonuni nazariyalar.
66. Talab va taklif funksiyasi.
67. Is’temolchi daromadida tovar qiymatining salmog‘i.
68. Talab va taklif o‘zgarishining davrlarga bog‘liqligi.
69. Narxning eng yuqori darajasi va kamyobliklar. Bahoning eng quyi darajasi va tovarlar ortiqchaligi.
70. Iste’mol tovarlarining al’ternativ assortimenti.
71. To‘ldiruvchi tovarlar va ularning almashinish normasi.
72. Byudjet chizig‘i va uning o‘zgarishi xususiyatlari.
73. Daromadlar o‘zgarishini iste’molchi xarakatiga ta’siri va uning xususiyatlari.
74. Tovarlar foydaliligi va iste’molchilar qoniqishini maksimallashtirish yo‘llari.
75. Ishlab chiqarish omillarining o‘zgarishi va ishlab chiqarish natijalariga ta’siri. Samaraning kamayib borish qonuni.
76. Ishlab chiqarish hajmini davrlarga bog‘liqligi.
77. Transaksion harjatlar va axborotlar ta’minoti.
78. Inson kapitali va unga investitsiyalar
79. Resurslar va ulardan samarali foydalanish.
80. Resurslar va tovarlar bozorining bog‘liqligi.
81. Naflilik funksiyasi va uni kamayib borishi qonuniyatlar.
82. Mutlaq va nisbiy samaradorlik mezonlari.
83. Qisqa va uzoq muddatli davrlarda foydani maksimallashtirish yo‘llari.

### **Qo‘srimcha mavzular**

1. Raqobatlashuvchi kompaniyalar faoliyatida talab elastikligi va uning ahamiyati
2. Mahsulotlarning narxga bog‘liq talab elastkligini baholash usullari
3. Raqobatlashgan monopol bozor sharoitida korxonalarining raqobat strategiyasi
4. Oligopolistik bozor sharoitida kompaniyalarining narx siyosati
5. Tabiiy monopol kompaniyalarini davlat tomonidan tartib solish
6. Tadbirkorlik faoliyatida tavakkalchilikni baholash usullari

7. Real sektor korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda institutsional muhit
8. Qaror qabul qilishda asimmetrik axborotlarning o‘rni
9. Er bozori va uni shakllanishining muhim jihatlari
10. Er qiymatini baholash usullari
11. Resurslar qiymatini baholashda renta usulining ahamiyati
12. Juhon moliyavi-iqtisodiy inqirozi sharoitida mehnat resurslarining ishlab chiqarish omillaridan biri sifatidagi o‘rni
13. Global moliyaviy inqiroz sharotida raqobatlashuvchi firmaning foydasi va daromadlari
14. Davlatning narx siyosatini iste’molchi va ishlash chiqaruvchi yutug‘iga ko‘ra tahlili
15. Ishlab chiqarish mashtabi samarasiga ko‘ra firmaning optimal razmerini aniqlash
16. Ishlab chiqarish omillari va ishlab chiqarish omillarining chekli mahsudorligining kamayish qonuni
17. Firma foydasini aniqlash va uni maksimallashtirish
18. Raqobatlashgan monopol bozor, uning ustun tomonlari va kamchiliklari
19. Raqobatlashgan bozorda harakat qiluvchi firma daromadlari
20. Juhon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida raqobatlashuvchi firmaning muvozanati
21. Firma va taromoqning uzoq muddatli oraligidagi muvozanati
22. Davlat tomonidan tovarlarga minimal va maksimal narxlarni o‘rnatalishi hamda uning oqibatlari
23. Davlatning atrof muhitni muxofaza qilish siyosati
24. Mehnat qilish va dam olish o‘rtasidagi bog‘liqlik
25. Aholi daromadlarini tabaqalashuvi va Lorens egri chizig‘i
26. Iqtisodiyotni liberallashtirish sharotida loyiha, investitsiya va investitsiyalash
27. Bozor qatnashchilari va ularning xususiyatlari
28. Xususiy talab va bozor talabi
29. Bozor iqtisodiyotida talab va taklifning ahamiyati
30. Davlatni bozor iqtisodiyotiga aralashuvi va uning oqibatlari
31. Iste’molchini bozordagi harakatini byudjet chegarasi yordamida tahlil qilish
32. Firmaning uzoq muddatli o‘rtacha xarajatlari va firmaning uzoq muddatli muvozanati
33. Ishlab chiqarish mashtabi samarasiga ko‘ra firmaning optimal razmerini aniqlash
34. Mukammal raqobatlashgan bozor va raqobatlashuvchi firma mahsulotiga talab
35. Sug‘ortalash bozori va ma’naviy tavakkalchilik
36. Bozordagi asimmetrik axborotlarni yo‘qotish yo‘llari
37. Monopol xokimiyat va jamiyat faravonligi
38. Raqobatlashgan monopol bozor, uning ustun tomonlari va kamchiliklari
39. Oligopolik bozor xususiyatlari
40. Ishlab chiqarish omillari, ishlab chiqarish omillari mahsudorligining kamayish qonuni
41. Kapital bozori va uning asosiy ko‘rsatkichlari
42. Atrof- muxitni muxofaza qilishda davlatning roli
43. Elastiklik va soliq yukini iste’molchi va ishlab chiqaruvchi o‘rtasida taqsimlanishi
44. Bozor iqtisodiyoti tizimining ijobiya va zaif tomonlari
45. Litsenziya, patent, mualliflik huquqining raqobatga ta’siri
46. Korxonalarda mehnatdan foydalanish ko‘rsatkichlari
47. Bozor muvozanati va uning ahamiyati
48. Firma foydasini aniqlash va uni maksimallashtirish

## 5. Kurs ishining bajarilishi

Talabalar 2-kursda «Mikroiqtisodiyot» fanidan 4-5 savoldan iborat reja asosida kurs ishi yozib himoya qiladilar. Talabalar kurs ishi rejasini rahbar bilan birgalikda tuzishi talab etiladi. Reja mukammal va mufassal holda tuzilib, tadqiq etilishi ko‘zda tutilgan barcha savollar va bandlarni qamrab olishi kerak. Bunda kurs ishi mavzusining yoritilishi talabadan analitik qobiliyatni shakllantirishi va sababiy bog‘liqlikda tahlillar qila olishiga xizmat qilishi zarur.

Ish rahbari kurs ishning rejasiga muvofiq talabaga kurs ishga tegishli materiallarni to‘plash bo‘yicha topshiriq, to‘ldiriladigan jadvallar maketini beradi. Kurs ishining asosiy materiallari talabalar tomonidan to‘plangan ma’lumotlari va nazariy bilimlari tashkil etadi.

Mavzuga oid amaliy materiallarni va statistik (hisobot) ma’lumotlarini to‘plashda ularning mavzuni yoritishga mos kelishiga va chuqur tahlil etish uchun etarlicha bo‘lishiga erishish kerak. Korxonaning ishlab chiqarish salohiyati va iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichlarini to‘liq o‘rganmay va atroflicha tahlil etmasdan turib, muammoning echimi bo‘yicha tegishli xulosa va takliflar tayyorlash mumkin emas.

Kurs ishini bajarishda zaruriy manbalar quyidagilar bo‘lishi lozim:

- kurs ishining barcha savollarini yoritishda foydalanilgan iqtisodiy va ijtimoiy adabiyotlar;
- respublika Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar hujjatlari va maxsus adabiyotlar;

- nizomlar, preyskurantlar va yo‘riqnomalar;
- tanlangan real korxonaning operativ va yillik reja ko‘rsatkichlari, hisobot ma’lumotlari;
- e’lon qilingan statistik ma’lumotlar;
- mavzu bo‘yicha ilmiy-tadqiqot institutlarining materiallari;
- gazeta, ilmiy jurnallar va boshqa matbuot nashrlari.

Talaba kurs ishi muallifi bo‘lib, yozilgan ishning to‘g‘riligiga va uning topshiriqqa muvofiqligiga, kurs ishida ko‘chirmachilik holatining yo‘qligiga javob beradi.

## **6. Kurs ishining tarkibi va mazmunini yoritish qoidalari**

“Iqtisodiyot” kafedrasi “Mikroiqtisodiyot” fanidan talabalar tomonidan tayyorlanadigan kurs ishiga qo‘yiladigan majburiy talablarni belgilaydi va bu talablarni talabalar e’tiboriga etkazadi. Kurs ishini tayyorlash jarayonida savollar bo‘yicha ayrim o‘zgarishlar kiritilishi mumkin. Kurs ishi kirish, reja, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘ladi.

Kurs ishini mazmuniga ko‘ra savollar bir-biridan farq qilishi va bir-birini mantiqiy bog‘lashi talab etiladi. Kurs ishini umumiy hajmi qo‘lyozmada 3600 so‘zdan oshmasligi tavsiya etiladi.

Har bir savol o‘rganilayotgan muammoning echimini ochib beruvchi asosiy natijalardan iborat xulosalar bilan yakunlash tavsiya etiladi.

1-jadval

### **Kurs ishlar tarkibi**

<b>Kurs ish tarkibi</b>	<b>YOritiladigan asosiy masalalar</b>	<b>Tavsiya etilayotgan hajmi, bet</b>
Mundarija		1
Kirish	Mavzuning dolzarbliji, maqsadi va vazifalari, tadqiqotning ob’ekti va predmeti, amaliy ahamiyati va ishning tarkibiy tuzilishi	4-5
I. Band	Mavzuning nazariy asoslarini bayon etuvchi savollar	8-10
II. band	Mavzuning hozirgi holati tahlilidan kelib chiquvchi savollar	10-12
III Band	Mavzu bo‘yicha ilgari surilayotgan asosiy g‘oyalar, tajribalar va mavjud tizimni takomillashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha talaba tomonidan ilgari surilayotgan savollar turkumi	8-10
Xulosa	Tadqiqot mavzusi yakunlari bo‘yicha xulosalar va takliflar	4-5
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, mavzu bo‘yicha maxsus adabiyotlar, ilmiy ishlar, maqolalar, yo‘riqnomalar, statistik ma’lumotlar manbalari	2-3
Ilovalar	Mavzuga tegishli bo‘lgan har qanday qo‘sishimcha statistik ma’lumotlar, jadvallar, chizmalar, diagrammalar, me’yoriy hujjatlardan ko‘chirmalar va boshqalar	CHeklanmagan

Kurs ishining ***kirish qismida*** hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi xukm surayotgan davrdagi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, inqirozga qarshi Davlat dasturi talablari va mamlakat iqtisodiy siyosatining istiqbolli yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda tanlangan mavzuning dolzarbligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, mavzuning o‘rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, tadqiqotning ob’ekti va predmeti va ishning tarkibiy tuzilishi mazmunan yoritiladi.

Maqsad va vazifalar kurs ishining asosiy mazmunini aks ettirish va qanday vazifalarni echishga yo‘naltirilganini ko‘rsatib berishi lozim.

***Birinchi bandda*** kurs ishining nazariy asoslari bayon etilib, mavzuning ilmiy va uslubiy jihatlariga qaratiladi. Bunda hozirgi davrda bu mavzuga bo‘lgan nazariy yondoshuvlar, masalaning mohiyati, muammoni echishning asosiy omillari va talabaning ilmiy, nazariy qarashlariga bo‘lgan munosabati bildiriladi.

Mavzuning xususiyatidan kelib chiqib, alohida savollarda mavzuga oid muayyan uslubiy masalalarni ham ko‘rib chiqish foydadan xoli emas. Albatta, talaba uchun mavzuning nazariy va uslubiy jihatlarini ishlab chiqish og‘ir. Ammo, mavzuda ko‘rib chiqilayotgan masalalarni echimiga oid ilmiy-uslubiy yondoshuvlar va ularning samaradorligini baholash mezonlariga umumiylaho berib ketish mumkin.

***Ikkinci bandda*** odatda muayyan mavzu bo‘yicha o‘rganilayotgan muammoning umumiy holatini tahlil etishga bag‘ishlanadi. O‘rganilayotgan ob’ektning tashkiliy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil etish etarlicha chuqur va maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi, masalaga oid haqiqiy ma’lumotlarga asoslanishi lozim. Ishda korxonaning oxirgi 3-5 yillik ma’lumotlari tahlili asos qilib olinishi lozim.

Savollarning yoritilishi korxonaga oid umumiy ma’lumotlar va uning tabiiy-ishlab chiqarish sharoitlarini tahlil etish bilan boshlanadi. Korxonaning hajmi, ishlab chiqarish salohiyati, ixtisoslashuvi, mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi kabi bir qator ko‘rsatkichlarni tahlil etishda ularning real tabiiy va ishlab chiqarish sharoitlariga bog‘liq holda ochib berish maqsadga muvofiq. Bunda keyingi yillarda ishlab chiqarish va boshqa sohalarda yuz bergan o‘zgarishlar, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri, hozirgi kunda mavjud kamchilik va muammolar hamda ularni keltirib chiqargan sabablarga keng o‘rin berish lozim.

Tahlillar olib borilgan ob’ekt misolida ilmiy mavzu tahliliy-hisoblar, jadvallar, diagrammalar, grafiklar va chizmalar orqali ochib beriladi.

***Uchinchi bandda*** muallif tahlillar asosida mavzuni takomillashtirish bo‘yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqadi, ilgari surilayotgan takliflar amaliy jihatdan asoslanadi.

Eslatma: *Talaba fan-tehnika va ishlab chiqarishning oxirgi yutuqlaridan boxabar bo‘lgan, zaruriy me’oriy hujjatlar bilan ta’minlangan, ishlab chiqarishni tashkil etish va ilg‘or texnologiyalarni qo’llash bo‘yicha tavsiyalar bilan qurollangan, xo‘jalik yuritish tizimlari bilan yaqindan tanish bo‘lsagina ilmiy asoslangan xulosa va takliflar bera olishi mumkin.*

***Xulosa va takliflar*** kurs ishining mazmuni bayon etilishini yakunlaydi. Unda talaba olib borgan ilmiy izlanishlarning natijalari umumlashtiriladi. Xulosa va takliflar aniq, qisqa va tushunarli tarzda bayon etilishi, faqatgina mavzuga oid masalalarni o‘zida aks ettirishi lozim.

Xulosa va takliflar kurs ishining kirish qismida yoritilgan maqsad va vazifalarga to‘liq mos kelishi hamda ish oldiga qo‘yilgan vazifalar qanday echilganini ko‘rsatishi lozim. Takliflar aniq natijalarga, tajribalarga asoslangan holda ko‘rsatib berilishi, zaruriy hisob-kitoblar va ma’lumotlar bilan mustahkamlanishi maqsadga muvofiq.

***Adabiyotlar ro‘yxatini rasmiylashtirish.*** Adabiyotlar ro‘yxati kurs ishining oxirgi qismida keltiriladi va adabiyotlar qa’iy tarzda quyidagi tartibda berilishi lozim.

- 1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
- 2.O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari.
- 3.Prezident farmonlari va xukumat qarorlari.
- 4.O‘zbekiston Respublikasini Prezidenti SH. Mirziyoevning asarlari.

5. Ilmiy adabiyotlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar va boshqa adabiyotlar (alfavit tartibiga ko'ra).

6. Ilmiy maqolalar.

7. Yo'riqnomalar, turli akt materiallari va boshqalar.

8. Statistik to'plam materiallar, korxona hujjatlari va materiallari.

Adabiyotlar ro'yxatida kurs ishi jarayonida foydalanilgan barcha ma'lumotlarning manbalari ko'rsatilishi lozim.

Zarur hollarda adabiyotlar keltirilgan iqtiboslarning manbasi albatta o'sha betda ko'rsatilishi, shu jumladan jadval yoki sxema manbasi ham o'sha betda ko'rsatib borilishi lozim. Agar jadval yoki chizma muallif tomonidan tayyorlangan bo'lsa, qaysi manbadan foydalanib tayyorlanganligi ham ta'kidlab o'tiladi.

Kurs ishini bajaruvchi talaba ish jarayonida ko'rib chiqqan lekin kurs ishi uchun ishlatalmagan, maxsus materiallar yoki faqat xizmat bo'yicha foydalanish uchun chop etilgan materiallar ro'yxatini ko'rsatmaydi.

Adabiyotlar ro'yxatida quyidagilar ko'rsatilishi shart:

▪ muallifning ismi-sharifi, adabiyotning nomi, chop etilgan manzili, nashriyotdan chiqqan yili va foydalanilgan saxifalari.

▪ ro'znama va oynomalardagi maqolalar ham adabiyotlar singari rasmiylashtirilib, unda muallifning ismi-sharifi, ro'znama yoki oynamaning nomi, raqami, sanasi va foydalanilgan betlari ko'rsatiladi.

*Ilovalar* qismida kurs ishining ishining ob'ekti bo'yicha olingan umumiy amaliy va axborot ma'lumotlari beriladi.

## **7. Kurs ishini rasmiylashtirish**

Kurs ishini tayyorlashda umumiy qoidalardan tashqari hisob-kitoblar va statistik jadvallarni to'g'ri va asosli ishlanganligiga ham e'tiborni qaratish lozim.

Har bir hisob-kitobda tushuntirishlar asoslangan holda berilishi lozim. Jadval, diagramma yoki chizmalarning manbalari va nomi ko'rsatilishi bilan birga, jadvaldan so'ng albatta jadvaldag'i ma'lumotlarga salbiy yoki ijobiy izox berish lozim bo'ladi.

Umumiy qabul qilingan belgilardan tashqari boshqa so'zlarni qisqartirib yozilishiga stilistik xatolarga yo'l qo'yimasligi va kurs ishi mavzusini yozilishi adabiy tilda bo'lishiga ham ahamiyat berishi kerak. **Xamda 14 shirift, 1,5 interval, Times new roman (baltikauzb)da yozilishi shart.** Kurs ishini matni aniq, erkin o'qiladigan xusnixatda standart yozuv qog'ozining bir tomonida yoziladi, qog'ozning chap qismidan 3 sm., yuqori qismidan 2 sm., o'ng tomonidan 1,5 sm., past qismidan 2 sm. joy qoldiriladi, raqamlash varoqning pustki qismida bajariladi.

**Kurs ishi qo'lyozmada qog'ozning bir tomonida bajarilishi shart.**

Kurs ishi quyidagicha rasmiylashtiriladi:

▪ dastlab titul varag'i, mundarija, kirish, va bandlar, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, oxirida esa ilovalar beriladi;

▪ kurs ishi rahbarining taqrizi muqovaning ichki qismidagi konvertga solinadi;

▪ titul varag'i;

▪ mundarija alohida sahifada ko'rsatilishi, unda bandlar, savollar qaysi sahifadan qaysi sahifagachaligi ham qayd etiladi;

▪ diagrammalar, chizma va jadvallardan himoya paytida foydalanish mumkin, faqat chizma va jadvallardan katta formatga ko'chiriladi;

Kurs ishini varaqlari titul varag'idan boshlab hisoblanadi. Ammo titul varag'i va mundarijaga raqam qo'yilmay, kirishdan qismidan 3 raqami bilan boshlanadi.

## **8. Kurs ishni himoya qilish**

Kurs ishi O'quv-uslubiy boshqarma tomonidan qat'iy belgilangan jadval asosida semestrning oxirgi 2 haftasida himoya qilinadi. Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan kurs ish talaba tomonidan rahbarga taqdim etiladi. Rahbar kurs ish talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirgandan so'ng, ishni o'z taqrizi bilan birga kafedra mudiriga taqdim etadi. Taqrizda talabaning

faolligi, qabul qilingan qarorlardagi yangiliklar va kurs ishning boshqa ijobiy tomonlari tavsiflanadi. Kafedra mudiri taqdim etilgan materiallar asosida, kurs ishini talaba tomonidan kafedrada tuzilgan Hay'at oldida himoya qilishga kiritish haqida qaror qabul qiladi. Agar, kafedra mudiri talabaning kurs ishini himoyaga kiritish mumkin emas deb hisoblasa, masala kafedra majlisida, rahbar ishtirokida muhokama etiladi.

Kurs ishini topshiruvchi talabani ma'ruzasi 5-10 daqiqa davomida tinglaniladi. Ma'ruzadan so'ng kurs ishi rahbarining taqrizi o'qib eshittiriladi. Hay'at a'zolari tomonidan berilgan savollarga talaba aniq va tushunarli qilib javob berishi lozim. Rahbar taqrizi bo'yicha noroziliklar bo'lsa himoyachi kamchiliklar to'g'rilanganligi to'g'risida gapirib o'tishi lozim.

Kurs bitiruv ishi ochiq himoya qilingandan so'ng Hay'atning yopiq kengashida himoya natijasi muhokama qilinib 5, 4, 3 baho tizimda baholanadi («a'lo», «yaxshi», «qoniqarli»).

Baholashda mavzuni o'rganish darajasi, hisoblash natijalari, himoya qilishdagi maruza hisobga olinadi. Hay'atning kurs ishni himoya qilushi talabaga qo'ygan bahosi Hay'at raisi tomonidan e'lon qilinadi.

NAMUNA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**IQTISODIYOT FAKULTETI**

**«IQTISODIYOT» kafedrasi**

---

**mavzusidagi**

**KURS ISHI**

Bajardi: “Iqtisodiyot» ta’lim yo‘nalishi 2- kurs  
talabasi

---

Ilmiy rahbar:  
«Iqtisodiyot» kafedrasi o‘qituvchisi

---

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Salimov B.T., Muxitdinova U.S., Mustafakulov SH.I., Salimov B.B. Mikroiqtisodiyot: darslik.-T.: TDIU, 2006.
2. G‘ulomov S.S, Alimov R.X., Salimov B.T., Xodiev B.YU., Ishnazarov A.I. Mikroiqtisodiyot. darslik-T.: SHarq. 2001.
3. Maksimova V.F. Mikroekonomika. uchebnik-M.: Market. 2010.
4. Nurieev R.M. Kurs mikroekonomiki.-M.: Norma-infra, Moskva. 2008.
5. Pindayk R., Rubinfeld D. Mikroiqtisodiyot// O‘lmasov A.U. o‘zbek tiliga tarjimasi.-T.: SHarq. 2003.
6. Egamberdiev E. Mikroiqtisodiyot. Darslik.-T.: TMI, 2004.
7. Samuelson P.E., Nordaxaus V.D. Mikroekonomika, 18-e izd.: per. s angl.-M.: OOO “I.D. Vilyams”, 2008.
8. G‘ulomov S., Salimov B. Mikroiqtisodiyot.-T.: SHarq. 2001.
9. 8. E.Egamberdiev. Mikroiqtisodiyot. Darslik.-T.: G‘.G‘ulom 2005.
10. Fisher S., Dornbush R., SHmalenzi R. Ekonomika.-M. Delo. 1997.
11. Raxmatov K. Mikroiqtisodiyot. O‘UM.-G. GulDU. 2019.

### **Qo‘sishimcha adabiyotlar:**

1. Salimov B., Mustafakulov SH., Salimov D. Mikroiqtisodiyot: masalalar, namunalar, topshiriqlar, testlar (o‘quv qo‘llanma)-T.: TDIU, 2010.
2. Mikroekonomika pod red. V.S. Atamanova, S.A. Ivanova.-M.: 2009.
3. Nurieev R.M. Sbornik zadach po Mikroekonomike. Norma. Moskva, 2008.
4. Pindayk R., Rubinfeld D. Mikroekonomika. 5-e mejdunorodnoe izd.-SPb.: Piter, 2007.
5. Prosvetov G.I. Strategiya predpriyatii. uchebnik. prakticheskoe posob.-M.: Alfa-Press. 2010.

### **Internet saytlari**

1. Mikroekonomika. Kurs leksiya. Zadachnik. Opornyy konspekt. Metodicheskie ukazaniya. [http://www.iet.ru/mipt/2/text/curs\\_micro\\_lect.htm](http://www.iet.ru/mipt/2/text/curs_micro_lect.htm)
2. Kurs Mikroekonomiki 1 v "Mikroekonomike promejutochnogo urovnya". Osoboe vnimanie udelyaetsya proizvodstvu, teorii firmy i strukturam ryinka. [http://www.nes.ru/Acad\\_year\\_2001/Micro2-rus.htm](http://www.nes.ru/Acad_year_2001/Micro2-rus.htm)
3. Uchebnye materialy po Mikroekonomike. On-line <http://www.ic.omskreg.ru/econrus/win/library/3/37/371/3713/table.htm>
4. Programma kursa “Mikroekonomika” <http://www.ic.omskreg.ru> /econrus/win/library/3/program/4.htm
5. Ignateva, Morgunova. Mikroekonomika. "<http://www.economics.ru>"
6. GUP Institut Mikroekonomiki pri Ministerstve Ekonomiki Rossii. "<http://www.imce.ru>"